

## ABA TERAPIYA: NAZARIY ASOSLARI , MOTODOLOGIYASI VA AMALIY QO'LLANISHI

*Fayzliddinova Laziza Bexzod qizi*

*Toshkent Kimyo xalqaro Universiteti*

*Spekial pedagogy fakulteti*

*+998900079104*

*fayzliddinovalaziza@gmail.com*

### ANNOTATSIYA

Oxirgi yillarda nevropsixologiya va maxsus pedagogika sohalarida eng ko‘p muhokama qilinayotgan yondashuvlardan biri bu ABA terapiya (Applied Behavior Analysis – amaliy xulq-atvor tahlili) hisoblanadi. U asosan autizm spektruz buzilishlari (ASB) bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashuvi, o‘qitilishi va kundalik hayotga moslashtirilishida samarali metod sifatida qo‘llaniladi. ABA terapiya ko‘plab ilmiy tadqiqotlar bilan asoslangan bo‘lib, u xulq-atvor psixologiyasining fundamental tamoyillariga tayanadi.

**Kalit so‘zlar:** ABA terapiya , Amaliy xulq-atvor tahlili , Autizm spektruz buzilishi , Xulq-atvor psixologiyasi , Operant shartlashuv , Discrete Trial Training (DTT) , Natural Environment Teaching (NET), Functional Behavior Assessment (FBA) ,Token Economy , Nutq va kommunikativ ko‘nikmalar , Ijtimoiy moslashuv ,Maxsus pedagogika , Erta intensiv xulq-atvor intervensiysi , Ilmiy asoslangan terapiya, Xulqni boshqarish strategiyalari

### АННОТАЦИЯ

В последние годы одним из наиболее обсуждаемых подходов в нейропсихологии и специальной педагогике является АВА-терапия (Applied Behavior Analysis – прикладной анализ поведения). Она в основном используется как эффективный метод социализации, обучения и адаптации к повседневной жизни детей с расстройствами аутистического спектра (PAC). Эффективность АВА-терапии подтверждена многочисленными научными исследованиями, и она основывается на фундаментальных принципах поведенческой психологии.

**Ключевое слово:** АВА-терапия , Прикладной анализ поведения , Расстройство аутистического спектра , Поведенческая психология , Оперантное обусловливание , Дискретное пробное обучение (DTT) , Обучение в естественной среде (NET), Функциональная поведенческая оценка (FBA), Экономика жетонов, Речевая и коммуникативная компетенция, Социальная адаптация, Специальная педагогика, Раннее интенсивное поведенческое вмешательство, Научно-обоснованная терапия, Стратегии управления поведением.

## ANNOTATION

In recent years, one of the most widely discussed approaches in neuropsychology and special education has been ABA therapy (Applied Behavior Analysis). It is primarily applied as an effective method for the socialization, education, and daily life adaptation of children with Autism Spectrum Disorders (ASD). ABA therapy is supported by numerous scientific studies and is based on the fundamental principles of behavioral psychology.

**Keyword:** ABA therapy, Applied Behavior Analysis, Autism Spectrum Disorder (ASD), Behavioral psychology , Operant conditioning, Discrete Trial Training (DTT), Natural Environment Teaching (NET), Functional Behavior Assessment (FBA), Token Economy, Speech and communication skills, Social adaptation, Special education, Early Intensive Behavioral Intervention (EIBI), Evidence-based therapy, Behavior management strategies.

### **ABA TERAPIYA: NAZARIY ASOSLARI, METODOLOGIYASI VA AMALIY QO'LLANILISHI**

#### **Tarixiy rivojlanishi**

1950–1960-yillar: Xulq-atvor psixologiyasi (behaviorizm) asosida B.F. Skinnerning operant shartlashuvi nazariyalari ishlab chiqildi.

1968-yil: Baer, Wolf va Risley tomonidan “Applied Behavior Analysis” ilmiy atamasi birinchi bor fanga kiritildi.

1970–1980-yillar: Ivar Lovaas autizmli bolalarda ABA terapiya dasturlarini keng ko‘lamda qo‘lladi.

XXI asr: ABA xalqaro miqqosda tan olindi, turli mamlakatlarda autizm bilan shug‘ullanuvchi markazlarning asosiy metodikasiga aylandi.

#### **ABA terapiyaning asosiy prinsiplari**

ABA amaliyotida quyidagi 7 tamoyil (Baer, Wolf & Risley, 1968) muhim ahamiyatga ega:

Ilmiylik – barcha natijalar kuzatuv, tajriba va statistik tahlilga asoslanadi.

Amaliylik – maqsad bolaning kundalik hayotda foydali bo‘lishini ta’minlash.

Davomiylik – natijalar vaqt o‘tishi bilan ham barqaror bo‘lishi kerak.

Kuzatuvchanlik – xatti-harakatlar tashqi tomondan o‘lchanadigan ko‘rinishda bo‘lishi lozim.

Tizimlilik – metodlar muayyan bosqichlarda muntazam qo‘llanadi.

Eksperimental asos – har bir texnika sinovdan o‘tkaziladi va taqqoslanadi.

Umumlashtirish – o‘rganilgan ko‘nikmalar turli vaziyatlarga ko‘chiriladi.

#### **ABA terapiyaning asosiy texnologiyalari**

Discrete Trial Training (DTT) – “ta’lim bloklari” asosida o‘qitish, har bir topshiriq tugagach, bolaga darhol rag‘bat berish.

Incidental Teaching – bolaning qiziqishidan foydalanib, tabiiy muhitda ko‘nikmalarni shakllantirish.

Task Analysis – murakkab faoliyatlarni bosqichlarga ajratish (masalan, “tish yuvish” jarayonini 7 qadamga bo‘lish).

Functional Behavior Assessment (FBA) – nojo‘ya xatti-harakatlarning sababini aniqlash va muqobil xatti-harakatni o‘rgatish.

Token Economy – mukofot tizimi (yulduzchalar, stickerlar, chiplar yig‘ib, keyin sovg‘a olish).

Modeling – bola kattalarning yoki tengdoshlarning xulqini kuzatib, o‘rganadi.

### **Ilmiy tadqiqotlarda samaradorlik**

Lovaas (1987): 40 soatlik ABA dasturi o‘tkazilgan 19 boladan 9 tasi (47%) oddiy mакtabga moslasha olgan.

Howard et al. (2005): ABA dasturida qatnashgan bolalar 14 oydan so‘ng IQ darajasi, nutq va ijtimoiy ko‘nikmalarda sezilarli o‘sish ko‘rsatgan.

Eldevik et al. (2009): 82 nafar autizmli bola ustida olib borilgan tadqiqotda ABA terapiya ta’sirida o‘quv ko‘nikmalari ancha yaxshilangan.

### **ABA terapiyaning afzalliklari**

Ilmiy asoslangan va empirik dalillarga ega.

Har bir bolaning individual ehtiyojiga moslashadi.

Natijalar kuzatiladi va statistik tahlil qilinadi.

Ijtimoiylashuv, nutq va o‘qishga tayyorlashda samarali.

### **ABA terapiyaga nisbatan tanqidlar va muammolar**

Haddan tashqari struktural bo‘lgani uchun ba’zan bolalarda tabiiy muloqot kam bo‘lishi mumkin.

Bolani “ko‘rsatmaga bo‘ysundirish”ga qaratilgan degan e’tirozlar mavjud.

Juda intensiv (haftasiga 20–40 soat) bo‘lgani uchun oilalarga moliyaviy yuk tushadi.

Malakali ABA mutaxassislari yetishmasligi muammo hisoblanadi.

Boshqa terapiyalar bilan taqqoslash

TEACCH dasturi: ko‘proq vizual yordamlar va struktural muhitga tayanadi, ABA esa xulqni o‘zgartirishga qaratilgan.

DIR/Floortime: bolaning hissiy aloqasini rivojlantirishni maqsad qiladi, ABA esa ko‘proq ma’lum ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Logopediya: nutq buzilishlarini to‘g‘rilashga qaratilgan, ABA esa umumiy ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

### **Xulosa**

ABA terapiya – xulq-atvor psixologiyasi nazariyasiga asoslangan, samaradorligi ilmiy isbotlangan metod bo‘lib, autizm va boshqa rivojlanish buzilishlari bo‘lgan bolalarga ijtimoiylashish, nutq, o‘quv va kundalik hayot ko‘nikmalarini o‘rgatishda

eng keng tarqalgan yondashuvlardan biridir. Zamonaviy maxsus pedagogika va klinik psixologiyada ABA terapiya – standart metod sifatida qaralmoqda.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Eldevik, S., Hastings, R. P., Hughes, J. C., Jahr, E., Eikeseth, S., & Cross, S. (2009). Meta-analysis of early intensive behavioral intervention for children with autism. *Journal of Clinical Child & Adolescent Psychology*.
2. Howard, J. S., Sparkman, C. R., Cohen, H. G., Green, G., & Stanislaw, H. (2005). A comparison of intensive behavior analytic and eclectic treatments for young children with autism. *Research in Developmental Disabilities*.
3. Leaf, R., & McEachin, J. (1999). A Work in Progress: Behavior Management Strategies and a Curriculum for Intensive Behavioral Treatment of Autism.